

KELAJAK AVLODGA TA'LIM - TARBIYA BERISH OLIIY MAQSADIM

Akaboyeva Gulzor Norqulovna

*Dehqonobod tumanidagi 69-umumiy o'rta ta'lim
maktabining 1-toifali boshlang'ich sinfo'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqola orqali kelajak avlod ta'lim-tarbiyasi bugunning ustuvor vazifasi ekanligi, mustaqil O'zbekistonda kelajak avlodni tarbiyalashda olib borilayotgan tizimli ishlar yoritib berilgan. Ta'lim har bir insonning shaxsiyati, ijtimoiy faolligi va iqtisodiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim, innovatsiya, tartibga solish, avlod.

Аннотация: В данной статье подчеркивается тот факт, что воспитание следующего поколения является сегодня приоритетом, и планомерная работа, которая ведется по воспитанию следующего поколения в независимом Узбекистане. Образование оказывает непосредственное влияние на личность, социальную активность и экономическое положение каждого человека.

Ключевые слова: Образование, образование, инновации, регулирование, поколение.

Annotation: This article highlights the priority of educating the next generation, the systematic work being done in independent Uzbekistan to educate the next generation. Education has a direct impact on the personality, social activity and economic status of each person.

Keywords: Upbringing, education, innovation, regulation, generation.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lmish yosh avlodni tarbiyalash ularning qalbiga mexr muxabbat, halollik va hayotiy bilim berish har birimizning burchimiz bo'lib bu yuksak ishonchni oqlash biz pedagoglardan ulkan ma'suliyat, qat'iyat va ishonch xislarini talab qiladi. Huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekanmiz, o'sib kelayotgan yosh avlod va bo'lajak mutahassislarning barkamol bo'lib voyaga yetishlariga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etib, bu tarbiya avvalambor oiladan, undan keyin esa maktabgacha ta'lim tashkilotidan va umumiy o'rta ta'lim beruvchi maktablarimizdan boshlanadi. Kelajakni qurish bugundan boshlanishi hech kimga sir bo'lmaganidek, barkamol shaxsni kamol toptirish uning yoshligidan boshlanadi. Biz ta'lim-tarbiyaga xozirdanoq e'tibor qaratmasak, o'zmizning porloq kelajagimizni qura olmaymiz. Zero, shu o'rinda taniqli marifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir" degan so'zlari naqadar chuqur ma'noga ega ekanligini anglashimiz mumkim. Bu muxim vazifani bajarishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni beqiyosdir. Hozirgi sharoitda pedagoglarimizga keng imkoniyatlar yaratib berilgan.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida tayanch vazifani tarbiyachining qo'yilgan talablarga qanchalik muvofiq ekanligi belgilab beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog tarbiyachilar, eng avvalo, bolaning kelajagi, taqdiri uchun yuksak mas'uliyatni to'la anglab yetishi zarur. Fakatgina maktabgacha yoshdagi bola rivojining muhim kadriyat ekanligini tushunishgina emas, balki bola rivojlanishi qonuniyatlariga doir bilimlarni ham egallash juda muhimdir.

Ana shunday qonuniyatlardan biri bolaning jismoniy va psixik rivojining uni o'rab turgan atrof-muhit bilan bog'liqligidir. Bolaning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlash haqida g'amxo'rlik qilish maktabgacha yoshdagi bolada tarbiyani oqilona tashkil etishning garovi bo'lib hisoblanadi, chunki mazkur yosh davri rivoji bolaning ijtimoiy holati, kayfiyati, emotsional ko'rinishlarga bevosita bog'likdir. Ana shu sababli tarbiyachi bolani o'rab turgan atrof-muhitga e'tiborli bo'lishi, bola hayoti va salomatligiga xavf soluvchi eng oddiy holatlarning ham oldini olishi lozim. Ya'ni, tarbiyachi maktabgacha ta'lim tashkiloti maydonchasi, o'yinchoklar, mebel jihozlarining bola yosh davriga mos kelish holatini muntazam nazorat qilib borishi, havo va suv temperaturasini o'lchashi, bolalarni tayyorlash uchun mashg'ulotlar vaqtini oldindan aniqlashi, mashg'ulotlarni olib borish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tarbiyachining e'tiborsizligi, befarqligi uning kasbiy layoqatsizligining muhim belgisidir. Tarbiyachining pedagogik faoliyatning ijodiy tavsifga egaligi tarbiyachidan ilg'or ish tajribalarini o'rganish, innovatsiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. Innovatsiyalarning jadal kirib kelishi tarbiyachilarni ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishga jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tarbiyachilarning bunday tadqiqot ishlariga jalb etilish keyinchalik erishilgan natijalardan o'z faoliyatida muvaffaqiyatli foydalanishga imkon beradi. Yosh avlodni kamol toptirish, unga to'g'ri yo'lanish berish umuman olganda bolaga chuqur bilim berish uchun avvalambor tarbiyachining o'zi chuqur bilimga ega bo'lishi zarurdir. Bolaning psixologiyasini anglash uning nimalarga qiziqishini yaxshi anglagan xolda yo'naltirishni to'g'ri tanlash zarurdir. Chunki bola xar bir hatti-harakatimizga e'tibor berib boradi.

Ta'lim jarayonini foydali va qiziqarli olib borishimiz zarurdir. Oddiygina bir misol, to'g'ri ta'lim-tarbiya olgan bola kelajakda o'sib ulg'ayib o'z kasbining egasiga aylanadi. Shu kasbi orqali hayotda o'z o'rnini topadi, o'z tengdoshlari, maxalla ko'ni ko'shni oldida o'z obro'- e'tiboriga ega bo'ladi, vatani uchun kerakli inson bo'lib yetishadi. Zero shaxs oilaning bir bo'laki, oila esa jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Har bir ota-ona o'z farzandini bilimdon, yuksak mahoratli, odobli pedagog-tarbiyachi qo'lida ta'lim-tarbiya olishni hoxlaydi. Tarbiyachilarimizni yuksak mahoratli, bilimli bo'lishlari uchun Davlatimiz katta e'tibor qaratmokda. Ko'plab bilim yurtlarida bir kator yangi yo'nalishlar ochilib, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan mahoratli pedagog kadrlarni tayyorlash va pedagog tarbiyachilarimizning malakalarini oshirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bunday murakkab vazifalarni bajarish uchun bir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda, qonunlar qabul qilinmoqda. Misol uchun "Kadrlar

tayyorlash milliy dasturi”, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda e’tirof etilgan g’oyalarga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiysiyosiy hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’g’ri ola bilish mahoratiga ega bo’lgan, istiqbolli vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo’naltirilgandir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsadi - ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to’la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axlokiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir. Maktabgacha ta’lim tizimiga oid yana bir qonun qabul qilindi. Bu qonun “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonunidir.

Bu qonun orqali maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim va tarbiya berish, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik hamda jismoniy jixatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o’rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan yo’nalishlar belgilab berildi. sohaga oid qonun bilan mamlakatimizda yashovchi har bir bolaning maktabgacha ta’lim-tarbiya olish huquqiga ega bo’lgani, eng muhim jixat, davlat har bir bolaning umumiy o’rta ta’lim tashkilotiga o’qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida umumiy o’rta ta’limga majburiy bir yillik qayta tayyorgarlikdan o’tishga bo’lgan huquqini kafolatlashi belgilab qo’yilgani katta yangiliklardan biri bo’ldi. Eng muximi mazkur qonun orqali maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasi tartibga solinmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimida bunday yondashuvlar albatta o’z samarasini beradi. Buning natijalarini hozirgi kunda ko’rib turibmiz. Mustaqil O’zbekistonimiz kundan kunga rivojlanmoqda, chiroy ochib bormoqda, yoshlarimish jaxon maydonlarida xar qanday yo’nalishda dunyo mamlakatlarini lol qoldirib yurtimiz bayrog’ini balandlarga ko’tarmoqda. Bunday yuksak marralarni egallashlarida albatta ustoz va murabbiylarimiz, pedagog tarbiyachilarimizning xissalari juda kattadir. Zero ertangi kun bugundan boshlanadi.

Ta’lim har bir insonning shaxsiyati, ijtimoiy faolligi va iqtisodiy holatiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Yuksak sifatli ta’lim bilan ta’minlangan avlodlar, nafaqat mamlakatimiz, balki butun insoniyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shadilar. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, globalizatsiya va tez o’zgarayotgan dunyo sharoitida ta’limning sifatini oshirish, yangicha metodikalar va yondashuvlar ishlab chiqish zarur. Shu bois, ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni echish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham e’tibor qaratishi lozim. Ta’lim jarayonining bir qismi sifatida tarbiya, individualning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlari shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Tarbiya orqali avlodlarga zamonaviy qadriyatlar, an’analar, vatanparvarlik ruhini singdirish kerak. Ayniqsa, yoshlar o’rtasida axloqiy me’yorlar, insonparvarlik va milliy g’urur kabi asosiy qadriyatlarni shakllantirish ularning kelajakdagi faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Kelajak avlodlar uchun strategiyalar:

1. Innovatsion ta’lim metodlari: Ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlardan foydalanish, ta’lim sifatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

2. Integratsiya: Ta'lim va tarbiyani bir-biri bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirish, shuningdek, ta'lim tizimini ijtimoiy hayot bilan bog'lash.

3. Yoshlar ishtirokini oshirish: Yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash, ularni rahbarlikka tayyorlash va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish.

4. Oila va jamoatchilik o'rtasida hamkorlik: Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, tarbiya jarayonida birgalikda harakat qilish.

Hozirgi zamon, jamiyatimizning asosiy sokinligini ta'minlash va kelajak avlodlarni har tomonlama rivojlantirish, ta'lim va tarbiyaning muhim ahamiyatini yanada oshirib boradi. Ta'lim - bu nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalash, uning tafakkurini, nuqtai nazarini shakllantirish va ma'naviy qiyofasini rivojlantirish jarayonidir. Har bir avlod kelajagimizning asosidir, shuning uchun ularning ta'limi va tarbiyasi ustida to'g'ri va puxta ish olib borish zarur. Kelajak avlodlarga ta'lim va tarbiya berish - bu nafaqat bugungi kundagi majburiyatimiz, balki erkin, bilimdon, ma'naviy jihatdan boy insonlarni tarbiyalab, ulardan kuchli va rivojlangan jamiyat yaratish uchun asosiy shartdir. Milliyatimizning kelajagi, jamiyatda o'z o'rnini topishlari, nafaqat bilimlariga, balki axloqiy va ma'naviy asoslariga ham bog'liqdir. Shuning uchun barchamiz ta'lim va tarbiya yo'lida birgalikda harakat qilaylik!

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна, Насиба Курбон Қизи Насимова, and Наргиза Супхоновна Ҳакимова. "Арт-педагогика для дошкольников." Scientific progress 2.7 (2021): 1201-1205.

2. Nasimova Nasiba Qurbon qizi. Use of Innovative Methods in Speeching Classes in Preschool Educational Organizations. International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, Volume 11 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>.

3. Nasimova Nasiba Qurbon qizi. Methods of Musical Education and Upbringing of Preschool Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2 | Issue 2 | ISSN: 2795-8612. European Journal of Innovation in Nonformal Education www.innovatus.es